

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI IJTIMOIIY PEDAGOGIK AMALIYOTGA AKSIOLOGIK MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY VAZIFALARI

**Xushnazarova Ma'mura Nodirovna -- Qo'qon davlat pedagogika instituti, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent
ORCID: 0000-0001-8643-7729**

Annotatsiya: Ushbu maqolada aksiologik yondoshuv vositasida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlash milliy masala sifatida qayd etilishi, talabaning ijtimoiy pedagogik amaliyotda faol ishtirok etishi, kasbiy ijtimoiylashuv, kasbiy kompetentlik negizida shakllanishi xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: aksiologik yondoshuv, aksiologik munosabat, qadriyatlar tizimi, faoliyat motivlari, aksiologik mezon, ta'limni insonparvarlashtirish, kasbiy kompetentlik

ОСНОВНЫЕ ЗАДАЧИ ФОРМИРОВАНИЯ ЦЕННОСТНОГО ОТНОШЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К СОЦИАЛЬНО- ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ

Хушназарова Маъмура Нодировна - Кокандский государственный педагогический институт, доктор философии в педагогических науках (PhD), доцент

Аннотация: В данной статье подготовка будущих учителей к социально-педагогической практике отмечена как общенациональная проблема, рассматривается активное участие студента в социально-педагогической практике, профессиональная социализация, формирование на основе профессиональной компетентности.

Ключевые слова: аксиологический подход, аксиологическая установка, система ценностей, мотивы деятельности, аксиологический критерий, гуманизация образования, профессиональная компетентность.

THE MAIN TASKS OF DEVELOPING AXIOLOGICAL ATTITUDES OF FUTURE TEACHERS TO SOCIAL PEDAGOGICAL PRACTICE

**Khushnazarova Mamura Nodirovna - Kokand state pedagogical institute,
PhD in pedagogical sciences, associate professor**

Annotation: In this article, the preparation of future teachers for social pedagogical practice is noted as a national issue, the student's active participation in social pedagogical practice, professional socialization, formation on the basis of professional competence are discussed in this article.

Key words: axiological approach, axiological attitude, value system, motives of activity, axiological criterion, humanization of education, professional competence

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”¹, – deb ta’kidlaydi. Bejiz, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “...inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish; milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish,”² kabilar ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab o‘tilmagan.

I.T.Frolova yondashuvlariga ko‘ra qadriyat tushunchasi “atrof-muhitning ijtimoiy tasniflanish ob’ekti inson va jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ta’sir o‘tkazadi: ezgulik, yaxshilik va yomonlik, tabiat va jamiyat hayoti hodisasi sifatida ko‘rilgan”.³ Bir qator olimlar qadriyatlarni tizimlash bo‘yicha xulosaviy fikrlarga kelganlar. B.Bitinas va I.R.Rodlasiylar qadriyatlarning uchta asosiy tizimini ajratib ko‘rsatishgan: transtsentral (diniy mohiyat nuqtai nazaridan qandaydir mutlaqlikka ega), ijtimoiy yo‘naltirilgan-sotsiotsentrik (guruhiy, umuminsoniy, kasbiy, milliy va h.k.) va antrorotsentrik (individual).⁴

M.A.Makarevish qadriyatlar tizimini quyidagicha guruhlarga ajratgan: hayot mazmunini belgilab beruvchi (yaxshilik, yomonlik, baxt, farovonlik), universal (hayotiy, demokratik, ijtimoiy obro‘-e’tibor, shaxsiy rivojlanish, shaxslararo munosabat), norasmiy (an’anaviy, diniy va urbanizatsiyaga oid) va jamoaviy (o‘zaro bir-biriga yordam berish va birdamlik). B.G.Ananev har bir hayotiy bosqich ma’lum bir qadriyatlarni hayotiy maqsad qilib qo‘yishini ta’kidlaydi. U yoshlarda ta’lim va

¹ Mirziyoev SH. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. 14-bet.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

³ Философский словарь // Под ред. Фролова И.Т. – М.: Республика, 2001. – 719 с.

⁴ Подласий И.П. Педагогика: 100 вопросов – 100 ответов. – М.: ВЛАДОС-пресс, 2004. – 83 с.

ilm olish, muloqot asosiy qadriyatlar sifatida kelishini va ular hayotiy maqsadini ushbu qadriyatlar orqali belgilashini asoslaydi.⁵

Ko‘rinib turibdiki, qadriyatlar mazmuni, mohiyati nuqtai nazaridan keng qamrovli, serqirra kategoriya hisoblanadi. Tadqiqotshi G.Gafforova va boshqalar zamonaviy dunyo rivojlanib borishi bilan bir vaqtda qadriyat ham takomillashib, mukammallashaverishi, shu sababli qadriyatlar shakli, xillari ma‘lum bir ma‘noda o‘zgarib turishi mumkinligini ta‘kidlaydi. Lekin ta‘lim, bilim va ilm-fan kabi qadriyatlar shaklu-shamoyilini ham, mazmun-mohiyati va qadr-qimmatini o‘zgartirmasligini urg‘ulab o‘tadi.

Pedagogik amaliyotda kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, ba’zi o‘qituvchilar yillar davomida o‘z faoliyatidan qoniqmasligi, o‘z faoliyatidan nolishlilik va bu orqali o‘quvchilar, ularning ota-onalari, shuningdek maktab pedagogik jamoasiga salbiy ta‘sir etib keladi. Tadqiqotimiz nuqtai nazaridan mazkur holatni tahlil qilgan holda aytish mumkinki, bu toifadagi o‘qituvchilarda avvalo “oliy qadriyatga ichki aksiologik munosabat” yetarli darajada rivojlanmagan. Pedagogik, ijtimoiy pedagogik amaliyotga doir muammoli vaziyatlarga o‘qituvchi uchun yangi tajribalar olish, o‘z-o‘zini professionallik darajasiga ko‘tarish uchun imkoniyat deb qarashi ichki aksiologik munosabatning namunasidir.

Kuzatishlar va manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi zamonda ba’zi ota-onalar oila tarbiyasida qadriyatlarni farzandlariga etkazishda etarli bilimga ega emasligi yoki mas’uliyatni his qilmasligi holatlari uchrab turadi. Mazkur holatni bartaraf etishda o‘qituvchining professional yondashuvi, o‘qituvchida aksiologik munosabatlarning yaxshi shakllanganligi muammoga echim sifatida ko‘riladi. Yoshlarning zo‘ravonlik, radikalizm kabi yomon illatlarga duchor bo‘lishini oldini olishda o‘qituvchining bilimi, salohiyati va o‘quvchilarga milliy, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini anglab etish darajasiga olib kelishda asqotadi. Albatta, qadriyatlarni etkazishda oila birinshi navbatda turadi va bu o‘rinni hech kim to‘ldira olmaydi. Maktab esa o‘quvchining qadriyatlarga sodiq holda kamol topishiga

⁵ Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – Л.: ЛГУ, 1999. – 154 с. (162).

muvaffaqiyat keltiruvchi omil sifatida qaraladi.

Tadqiqotchi M.Karimova bo'lajak o'qituvchini kasbiy-tarbiyaviy, ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlashda kasb axloqiga doir bilimlar, ma'naviyatni shakllantirish muammolarini, xorijiy mamlakatlar pedagogikasida erishilayotgan ilg'or tajribalarni o'rganish va tahlil qilish, istiqbolli rejalar tuzish muhim ahamiyat kasb etishiga e'tibor qaratadi.

Bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy pedagogik amaliyotga aksiologik munosabatlarni rivojlantirishning vazifalari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

- talabalarni erkin fikrlashga o'rgatish, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg'otish;

- talabalarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, boy ma'naviy meros bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarni shakllantirish, malaka hosil qildirish, o'stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

- har bir talabaning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilib ko'rish;

- insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunish, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga qarshi kurasha olish), muomala odobi kabi tarbiya vositalarini keng qo'llash;

- odamlar bilan o'zaro munosabat, muloqotni o'rganish, har qanday vaziyatda, har bir inson bilan pedagogik muloqotga kirisha olish, turli saviyadagi odamlar bilan maqsadli munosabat o'rnatish;

- qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovshi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish;

- sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish;

- yoshlarni erkin va mustaqil, tanqidiy fikrlashga o'rgatish, o'z fikrlari uchun

mas'uliyat hissini uyg'otish.

Demak, aksiologik yondoshuv vositasida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlash milliy masala sifatida qayd etiladi. Aksiologik yondoshuv vositasida ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorlash – insonning ijtimoiy pedagogik amaliyotda faol ishtirok etishi, jarayonga o'zini baxshida qilishi, u tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar yig'indisini anglatadi. Ijtimoiy pedagogik amaliyotga tayyorgarlik kasbiy ijtimoiylashuv, kasbiy kompetentlik negizida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Mirziyoev SH. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016. 14-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.
3. Faffarova G., Polvonova S. Inson kapitalini rivojlantirishda milliy qadriyatlarning ahamiyati // Academic research in educational sciences volume 2, 2021. – 723-781-b.
4. Karimova M.O. Talabalarni kasbiy-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari // NamDU ilmiy axborotnomasi, №10, 2019. – 317 b.
5. M.N.Xushnazarova. Volontyorlik faoliyatining ijtimoiy –pedagogik muammolari. Science problems .UZ.Ijtimoiy- gumanitar fanlarning dolzarb muammolari.№ 12 /2 (3)- 2023 . 311-315
6. M.N.Xushnazarova. Volontyorlik (ko'ngillilik) faoliyatining innovatsiyon shakllari va ularning pedagogik tahlili. O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari.2024.(1/4) ISSN 2181-7324,229-232
7. M.N.Xushnazarova. Oliy ta'lim talabalari orasida volontyorlikning mikro darajadagi omillariga e'tibor qaratish. NamDU ilmiy axborotnomasi . 2023 yil 12-con.792-796.
8. M.N.Xushnazarova.The need to use the experience of foreign countries regarding the improvement oft he pedagogical conceptual mechanism of volunteer activities. Journal of Advanced Zoology.Volume 44.issue-2 Year 2023 Page 3765-3771.